

Musiqiy savodxonlik

1



N. P. Cheryomuxina

Musiqiy savodxonlik 1-sinf

Umumiy o'rta ta'lim maktablari
uchun darslik

Ta'limni rivojlantirish markazi huzuridagi
kengash tomonidan tavsiya etilgan.



novda
edutainment

Toshkent – 2023

Aziz do'stlar!

Sizni musiqaning sehrli olami qarshi olmoqda! Musiqa bilan siz ajoyib tovushlar dunyosini kashf qilasiz. Ushbu qo'llanma sizni turli xil musiqa asboblari bilan tanishtiradi. Siz mashhur musiqa va qo'shiqlarni tinglaysiz hamda o'rganasiz. Darslarda musiqani eshitishni va his qilishni, musiqiy qobiliyatni o'stirishni, nota yozishni o'rganasiz.

Sizga muvaffaqiyat tilaymiz!





Musiqi nima?

Biz har kuni turli tovushlarni eshitamiz.

Ko'zimiz bilan ko'rmasak ham, tovushlar orqali nimalar sodir bo'layotganini his qilishimiz mumkin.

Masalan:



**Tomga yomg'ir
tomchilayapti**



**Momaqaldiroq
gumburlayapti**



**Shamol barglarni
tebratmoqda**



**Ko'chadan avtomobil
o'tib ketdi**

Bu tovushlar **shovqinli tovushlar** deyiladi.


Yana musiqiy tovushlar ham bo'ladi. Ularni kuylash yoki musiqa asboblari chalish mumkin.



Rasmlarga qarang. Qaysi rasmda shovqinli, qaysi biri musiqiy tovush?



Musika musiqiy tovushlardan tashkil topadi.
Musiqani qog'ozga yozish uchun odamlar notalarni ixtiro qilgan.



Yettita nota bor: do, re, mi, fa, sol, lya, si.

Musiqiy tovushlardan musiqiy ohang hosil bo'ladi.

Ohang – bu musiqaning asosi.



O'z ovozingiz bilan ham ohang chiqarishingiz mumkin.
Buni kuylash deyiladi.

**O'z ismingizni kuylashga
harakat qiling.**



2



Aaaak-maaal

Maaa-diiii-naaa



**Tovushlar qanday bo'ladi?
Musiqi nima?
Tovushlarni qaysi a'zolar orqali
eshitamiz?**

O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi

Bizning Vatanimiz – O'zbekiston. Bilasiz, O'zbekiston o'z ramzlariga ega. Bular – gerb, bayroq va madhiya.

Madhiya – bu davlatning musiqiy ramzi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi 1992-yil 10-dekabrda qabul qilingan. Matn muallifi – O'zbekiston xalq shoiri **Abdulla Oripov**. Musiqasini bastakor **Mutal Burxonov** bastalagan.

**Bastakor musiqa bastalaydi, shoir she'r yozadi.
Shunday qilib qo'shiq paydo bo'ladi.**

Qo'shiq aytish qoidalarini yodda tuting:



Qo'shiq aytayotganda
qaddingizni tik tuting.



Qo'shiq aytayotganda
to'g'ri o'tiring.

**O'zbekiston Respublikasi Davlat
madhiyasini tinglang.**



3

Vatanimiz madhiyasi ijro etilayotganda o'ng
qo'limizni ko'ksimizga qo'yib turishimiz kerak.



1. Madhiya nima?
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining bastakori kim?
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi matni muallifi kim?

Maktabim

I. Muslim she'ri
F. Nazarov musiqasi



Ona kabi mehribon,
Ilm-fanlarga makon.
Yayrab o'qiyman har on,
Qadrdonim maktabim!



4

Naqarot: {2x}

Senda fanlar xilma-xil,
Ongim o'sar yilma-yil.
Sevinchlarga to'lar dil,
Qadrdonim maktabim!

Men dunyoda baxtiyor,
Hech chekmayman alam-zor.
Vatanim – mangu gulzor,
Qadrdonim maktabim!

Naqarot: {2x}

Senda fanlar xilma-xil,
Ongim o'sar yilma-yil.
Sevinchlarga to'lar dil,
Qadrdonim maktabim!

A'lo o'qishdir burchim, **{2x}**
Sarf etarman bor kuchim.
Ishlayman xalqim uchun,
Qadrdonim maktabim!




Mening sevimli qo'shiqlarim

Qo'shiq kuplet va naqarotdan iborat bo'ladi. Kupletlar matni turli, naqarot esa bir xil bo'ladi va qo'shiq davomida bir necha marta takrorlanadi.



**Rasmga qarang.
Sizningcha, mening eng
sevimli qo'shig'im qaysi?**



“Jo'jalarim” qo'shig'ining musiqasi ozarbayjonlik bastakor Gambar Guseynli tomonidan bastalangan.

Qo'shiq so'zlarini Tofiq Mutellibov yozgan.

Bu qo'shiq dunyoning yuzlab tillariga tarjima qilingan.

“Jo'jalarim” qo'shig'ini tinglang.



5



Sizga bu qo'shiq yoqdimi?



1. Sizning sevimli qo'shig'ingiz qaysi?
2. Uni kim kuylagan?
3. Sevimli qo'shiqni tinglayotganingizda kayfiyatingiz o'zgaradimi?
4. Musiqi odamning kayfiyatini ko'taradi, deya olamizmi?

Tez aytishlar – yanglishib ketish mumkin bo'lgan qofiyadosh va ohangdosh so'zlardan iborat jummalarni tez talaffuz qilish.



Tez aytishni o'rganing.

Tovuq sovuqda sovuqotadimi,
Sovuqda tovuq sovuqotadimi?



Matnni yodlab, kuylab bering.

Maysalarni cho'qiyman deb tovuq shoshdi.
Orqasidan momiqqina jo'jalar ergashdi.
– Qoq-qoq-qoq! Qoq-qoq-qoq! Ketmangiz uzoq,
Yerni titib, don topganingiz yaxshiroq.

Ovoz sozlash – tovush paychalari uchun mashq.



6

Jo'jalarim



Jo'ja, jo'ja, jo'jalarimning
Patlari sariq.
Sariq ko'zlari
Misoli tariq.

Har kun ularga
Don oberaman.
Yo'qolmasin deb,
Sanab qo'yaman,

Naqarot:

Jo'ja, jo'ja, jo'jalarimning
Patlari sariq.
Sariq ko'zlari
Misoli tariq.



Har kun ularga
Don oberaman.
Yo'qolmasin deb,
Sanab qo'yaman.

Naqarot:

Jo'ja, jo'ja, jo'jalarimning
Patlari sariq.
Sariq ko'zlari
Misoli tariq.



Musiqiy tovushlar olami

Musiqiy tovushlar baland,
o'rta va past bo'ladi.



"Teremok" ertagini bilasizmi?
Ovozingizni ushbu ertak qahramonlariga
o'xshatib chiqarib ko'ring.
Sichqoncha va qurbaqaga qanday
tovush mos keladi, balandmi yoki
pastmi? Bo'ri va ayiqqa-chi?





1. Asarda qaysi hayvonlar tovushini eshitdingiz?
2. Musiqaning qaysi joyida tovushlar past bo'ldi, qaysi joyida – baland?



Tez aytishni yodlang.

Oq choynakka ko'k qopqoq,
Ko'k choynakka oq qopqoq.

Musiqqa **sokin** yoki **baland** bo'lishi mumkin. Bu “ovoz kuchi” deyiladi. Musiqada baland tovushlar **f** (forte) bilan, sokin tovushlar esa **p** (piano) bilan belgilanadi. Bu so'zlar italyan tilidan olingan.

Bastakor J. Bizening “Tog'larda tong” asarini tinglang.



8


Bastakor L. Betxovenning “Momaqaldiroq. Bo'ron” asaridan parcha tinglang.



9



**Bu asarlarda qanday tabiat hodisalarini eshitdingiz?
Ularning qanday jaranglashini solishtiring.**



1. Fotosuratlarda qaysi fasl tasvirlangan?
2. Bu suratlarga qanday musiqa mos keladi?

Kuz

Nurbek she'ri
Sh.Yormatov musiqasi

Kelib yetdi gavhar kuz,
Sandiq ochdi gavhar kuz.
Bog'larining saxovati
Sochildi noz-ne'mati.

Hil-hil pishdi nok-gilos,
Ochildi paxtamiz, soz.
Ochildi paxtamiz, soz,
Paxtamiz, jon paxtamiz.

Kiyim-kechak, osh-u non
Oq oltinni teraylik.
Oq oltinni teraylik,
Do'stlarim, xirmon-xirmon.



10



Musiqiy asboblar

Asboblar odamlarning uydagi va ishdagi zaruriy yordamchilaridir.



Kim qanday asboblardan foydalanishini ayting.




Asboblarga qarab, qaysi kasbga tegishli ekanini ayting.



Musiqachi – turli cholg‘u asboblariida musiqa ijro etuvchi odam.

Musiqani ovoz bilan ham ijro etish mumkin. Bunday ijrochi – xonanda deb ataladi.

Xonanda – ovozda qo‘shiq ijro etadigan san‘atkor.





1. Siz qo'shiq aytishni yoqtirasizmi?
2. Siz biror musiqa asbobini chalishni bilasizmi?

Topishmoqlarni toping.

Men bilan yanada zavqli sayohat,
Davrani qizdirish mengadir odat.
Shaklim – quyoshsimon,
sho'xchan yangrayman,
Barchani quvnatib, o'zim yayrayman...

Uning shakli ulkan, o'zi kattakon,
Ichidan topganmish musiqa makon.
Qora-oq tishlari bosilgani on,
Musiqa chalinib, taralar har yon.

Kamon tortsam, kuy taralar,
Xo'p mayin tovushi bor.
Atrof go'yoki kuylar,
Yangraganda to'rtta tor.





1. Yana qanday musiqiy asboblarni bilasiz?
2. Uyingizda qanday musiqiy asboblار bor?



Dunyoda ko'plab musiqiy asboblار bor. Siz ushbu cholg'u asboblارidan qaysilarini bilasiz?



O'zbekiston bayrog'i



I.Mirzo she'ri
M.Nurmatov musiqasi

Qalbimiz to'la surur, to'tiyo yurt tuprog'i,
Hilpirab turar mag'rur, O'zbekiston bayrog'i.
Rangi hayot misoli, yulduzlari hiloli,
Mustaqillik timsoli, O'zbekiston bayrog'i.

Naqarot:

Iftixor dilimizda, u yo'ldosh yo'limizda,
Yuksalar qo'limizda, O'zbekiston bayrog'i.

Gumbazlarda, yuksakda, peshtoqlarda, falakda,
Ko'ngillarda, yurakda, O'zbekiston bayrog'i.
Rangi hayot misoli, yulduzlari hiloli,
Mustaqillik timsoli, O'zbekiston bayrog'i.


Naqarot:

Iftixor dilimizda, u yo'ldosh yo'limizda,
Yuksalar qo'limizda, O'zbekiston bayrog'i.







Cholg'u asboblarning guruhlari




Torli cholg'u asboblari



Klavishli cholg'u asboblari



Puflab chalinadigan cholg'u asboblari



Zarbli cholg'u asboblari

ABC

Aa-Bb-Cc-Dd-Ee-Ff-Gg

Hh-Ii-Jj-Kk-Ll-Mm-Nn-Oo-Pp

Qq-Rr-Ss, Tt-Uu-Vv

Ww-Xx, Yy-and-Zz,

Now I know my A-B-C

Come on now and sing with me.

Aa-Bb-Cc-Dd-Ee-Ff-Gg

Hh-Ii-Jj-Kk-Ll-Mm-Nn-Oo-Pp

Qq-Rr-Ss, Tt-Uu-Vv

Ww-Xx, Yy-and-Zz,

Mother will be pleased with me

Now I know my A-B-C.



12





Yog'ochli puflama cholg'u asboblari

Yog'ochli puflama cholg'ular bu teshikchali naycha ko'rinishidagi asboblardir. Ularni og'izga tutib, havo puflab chalinadi.

Bugun biz yog'ochli puflama musiqiy asboblari – nay va fleyta bilan tanishamiz.



Nay



13

Nay – puflab chalinadigan musiqiy asbob. Sharqda nay qadimdan qamish, mis va bambukdan tayyorlangan.

Fleyta dunyodagi eng qadimiy cholg'u asbobi hisoblanadi. Yog'ochdan yasalgan fleyta uzun hushtakka o'xshaydi.



Fleyta



14



1. Qanday cholg'u asboblari puflama musiqiy asboblari deb ataladi?
2. Nay nima?
3. Fleyta nima?
4. Ular bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?



Alifbo

P.Mo'min she'ri
D.Omonullayeva musiqasi

Alifbodan harflarni
Biz o'rgandik oz-ozdan.
Minnatdormiz
o'rgatuvchi
Muallimdan, ustozdan.

Naqarot:

Tilimizni sayratadi,
Alifbomiz bayrami.
Dilimizni yayratadi,
Bayramlarning xurrami.

Oldimizda saf tortishdi,
Askarlarday harflar.
Barchasiga qo'shiqlarda
Berib o'tdik ta'riflar.



15

Naqarot:

Tilimizni sayratadi,
Alifbomiz bayrami.
Dilimizni yayratadi,
Bayramlarning xurrami.

Oldimizda saf tortishdi,
Askarlarday harflar.
Barchasiga qo'shiqlarda
Berib o'tdik ta'riflar.

Naqarot:

Tilimizni sayratadi,
Alifbomiz bayrami.
Dilimizni yayratadi,
Bayramlarning xurrami.



Misli puflama cholg'u asboblari

Misdan yasalgan puflab chalinadigan cholg'u asboblari misli puflama musiqiy asboblari deyiladi.



Bugun siz bilan misli puflab chalinadigan cholg'u asboblari karnay va trombon bilan tanishamiz.

Karnay



16

Karnay – misli puflab chalinadigan o'zbek milliy cholg'u asbobi. Uning uzunligi 3 metr bo'ladi.

Trombon – puflab chalinadigan misli cholgʻu asbobi. Italian tilidan olingan “trombon” soʻzi “katta quvur” deb tarjima qilinadi.



Trombon



17



1. Misli puflama cholgʻu asboblari nimadan yasaladi?
2. “Trombon” soʻzining maʼnosi nima?
3. Yana qanday puflab chalinadigan misli cholgʻu asboblarni bilasiz?

Olmani qarang

P.Mo'min she'ri

D.Omonullayeva musiqasi

Olmani qarang,
Yuzlari tarang.
Shoxda qaltirar,
Rangi yaltirar.

Ketmas uzilib,
Turar tizilib.
Kim olma yesa,
Mazza-yu mazza!



18





**Rasmda musiqiy
asboblarni toping.**



1. Sizningcha, rasmdagi qaysi cholg'u asboblari zarbli musiqiy asboblار guruhiga kiradi?
2. Rasmda puflab chalinadigan cholg'u asboblari bormi?
3. Rasmda torli va klavishli cholg'u asboblari bormi?

Torli-kamonli cholg'u asboblari

Torli-kamonli cholg'u asboblari tarang tortilgan torlar ustidan kamon yurgizish bilan chalinadi.

Bugun siz bilan torli-kamonli musiqiy asboblardan g'ijjak va skripka bilan tanishamiz.



G'ijjak



19

G'ijjak – milliy musiqiy cholg'u asbobi. Uning to'rtta tori bor. G'ijjakda xalq qo'shiqlari musiqasi ijro etiladi.

Skripkaning to'rtta tori bo'lib, u kamon tortish bilan chalinadi.



Skripka



20



1. Qanday asboblari torli-kamonli cholg'u asboblari deyiladi?
2. G'ijjak va skripka o'rtasida qanday farq bor?

Dadajon

P.Mo'min she'ri
D.Omonullayeva musiqasi




Dadam ishdan kelsalar,
To'lib ketar uyimiz.
O'sib ketguday bo'lar
Xursandlikdan bo'yimiz.

Naqarot:

Dadajon, dadajon,
Bir kun sizday bo'lamiz.
Dadajon, dadajon,
Sizni juda sevamiz.

Kelsalar peshvoz chiqib,
Beramiz bir-bir salom.
Eng avval ukam bilan,
Qilarlar achom-achom.

Naqarot






Musiqiy asboblarning nomlarini toping.

F	O	R	T	E	N	I
J	P	I	A	N	O	R
L	N	A	Y	K	T	Q
M	U	S	I	Q	A	N
O	H	A	N	G	P	N
K	A	R	N	A	Y	A
F	L	E	Y	T	A	Y



Nuqtalarni chiziqlar yordamida tutashtiring. Hosil bo'lgan cholg'u asbobi nomini ayting.




Onajon

Bugun barcha gullar
poyingizda, onajon,
Orzu-niyatingiz ro'yobi
bo'lsin shu on.
Mehrli ko'zingiz, iliq
tabassumingiz,
Dildan shod aylang siz, onajon.

Onajon, yagona so'zdir
bu dunyoda onajon,
Onajon, sizning mehringiz
kuylab tolmaydi butun jahon.
Onajon, quvonch bag'ishlaysiz
har onda, onajon,
Onajon, borligingiz bilan
yashnar butun jahon.



22

**Krossvordni yeching.**

1. Qo'shiqda takrorlanadi.
2. Musiqani qog'ozga yozish uchun foydalaniladigan belgilar.
3. Davlatning musiqiy ramzi.
4. She'r yozadigan inson.
5. Musiqi bastalaydi.
6. Musiqi asboblari chaluvchi odam.

Chertib chalinadigan torli cholg'u asboblari

Chertib chalinadigan cholg'u asboblari bu torni barmoq uchlari bilan yoki mediator yordamida chertib chalinadigan musiqiy asboblardir.

Bugun siz bilan chertib chalinadigan torli cholg'u asboblardan gitara va ud bilan tanishamiz.



Gitara



23

Gitara – sakkiz raqami shaklidagi chertib chalinadigan torli cholg'u asbobi. Gitaraning 6 tadan 12 tagacha tori bo'ladi. An'anaviy gitara oltita torlidir.

Ud – juda qadimiy sharqona musiqiy asbob.
Udning torlari soni 2 tadan 13 tagacha bo'ladi.



Ud



24



1. Gitaraning nechta tori bo'ladi?
2. Ud gitaradan nimasi bilan farq qiladi?
3. Yana qanday torli musiqiy asboblarni bilasiz?

Zarbli cholg'u asboblari

Zarbli cholg'u asboblari bu barmoqlar yoki maxsus tayoqcha bilan urish orqali tovush hosil qilinadigan asboblardir.

Bugun siz bilan zarbli musiqiy asboblardan doira va buben bilan tanishamiz.



Doira



25

Doira – yog'och halqaga terini tarang tortib ishlangan qadimiy milliy zarbli cholg'u asbobi.

Buben bu tuzilishi doiranikiga o'xshash, yog'och halqaga teri tarang tortib ishlangan zarbli cholg'u asbobi hisoblanadi.



Buben



26



1. Qanday asboblari zarbli cholg'u asboblari deb aytiladi?
2. Buben va doira nima?
3. Yana qanday zarbli musiqiy asboblarni bilasiz?

Klavishli cholg'u asboblari

Klavishli cholg'u asboblari bu klavishlar bosilishi orqali musiqa ijro etiladigan asboblardir.

Bugun siz bilan klavishli cholg'u asboblardan – royal va pianin bilan tanishamiz.

Royal – fransuz tilidan olingan bo'lib, “shohona” degan ma'noni anglatadi.



Royal



27

Pianino maxsus kichik xonalar uchun mo'ljallangan musiqiy asboddur.



Pianino




28





1. Klavishli cholg'u asboblari qanday chalinadi?
2. Pianino royaldan nimasi bilan farq qiladi?
3. Yana qanday klavishli cholg'u asboblari bilasiz?

Musiqiy alifbo




**Notalar – musiqani
qog'ozga yozish uchun
foydalaniladigan belgilar.**

Kim ekan o'rindiqla,
bu qo'shimcha chiziqda?
Biz notalarga shaydo,
bu nota nomidir **DO!**





Chiziqdan kim sakray oldi
va chiziq ostida qoldi?
U har joyda uchraydi,
Bu nota nomidir **RE!**





Chiziq bo'ylab yugurdi,
birinchida tutildi.
Uni yozolasizmi?
Bu nota nomidir **MI!**

Birinchi va ikkinchi
chiziqlararo shunday,
yolg'iz turar, lek qulay.
Unda bordir vazifa,
Bu nota nomidir **FA!**



Ikkinchi qatorga qara,
notani chal baralla.
Ohangiga quloq sol,
Bu nota nomidir **SOL!**

Uchinchi va ikkinchi
chiziqdagi notalar,
keling, kuylaylik jo'shib!
Qo'shiq so'zi faqat: Iya, Iya, Iya.
Bu nota nomidir **LYA!**



Qarang, uchinchi qator –
chiziqda bir nota bor!
Notalarning so'nggisi,
bu nota nomidir **SI!**

Notalar 5 ta parallel chiziqlarga yoziladi. Bu chiziqlar “nota chizig‘i” yoki “nota yo‘li” deb ataladi.

Har bir qatorning boshiga musiqiy belgi – Skripka (sol) kaliti yoziladi.




Rasmdan notalarni toping va ularni bo‘yang.








Yettita notani to'g'ri ketma-ket tartibi bilan yozing.



Sol kalitini yozishni o'rganing.



Pianino



M.Zayniddinov she'ri
J.Najmiddinov musiqasi

29



Do, re, mi, fa, sol, lya, si (2x)
Maktab pianinosi.
Klavishi oq-qora,
Havasing kelar, qara.

Bir, ikki, uch, o'ng oyoq, (2x)
Ohangga soling quloq.
Yangroq kuyga jo'r bo'lib, (2x)
Qo'shiq aytamiz quvnoq.





Shovqinli cholg'u asboblari

Bugun biz shovqinli cholg'u asboblari bilan tanishamiz.



30

Shovqinli cholg'u asboblari bu musiqadagi shovqinni hosil qiluvchi asboblari hisoblanadi. Shovqinli tovushlarga quyidagilar kiradi: sinish, taqillash, chiyillash, shitirlash.

Shovqinli tovushlar musiqada ovoz effektlarini yaratish uchun ishlatiladi.



Buben



Shaqildoqlar



Qutichalar



Hushtakchalgi



Marakaslar



Qoshiqlar




Rumba



Uchburchak

Shovqinli cholg'u asboblari: buben, likopchalar, kastanetlar, marakaslar, uchburchak va boshqalar.

Shovqinli cholg'u asboblari o'zingiz tayyorlab, quvnoq orkestr bilan birgalikda chalishingiz mumkin.



Shaxildoqlar (treshotka) – bu kichik taxtachalarning, bir-biriga urilishidan ritmik tovush hosil qiluvchi shovqinli cholg'u asbobi.

Shaxildoqlarni yasash uchun chizg'ichlar yoki yog'och taxtachalar, munchoqlar va arqoncha kerak bo'ladi.




Tez aytishni yodlang.

Boqi qoqini Soqiga sotdimi,
Soqi qoqini Boqiga sotdimi?



Har bir qatordagi ortiqcha buyumni toping.



Marakaslar juda qadimiy shovqinli cholg'u asbobi bo'lib, uni silkitganda, shitirlagan tovush paydo bo'ladi.

Marakaslarni yasash juda oson. Buning uchun mahkam yopilgan har qanday qopqoqli plastik idishni don (guruch yoki grechka) bilan to'ldirish kifoya.



Marakaslar yasang.



31



1




2



3



4



5



6



7



8

Kelajakmiz

Azizbek she'ri
Sh.Zokirov musiqasi



32



Qomusimiz baxtimizdir,
Baxtli bo'lish ahdimizdir.
O'tmoqdadir vaqtimiz zo'r,
Shodliklar bilan.

Sport, san'at-u ilmda ham,
Biz hech kimdan
bo'lmaymiz kam.
Intilamiz ko'kka har dam,
Shijoat bilan.

Naqarot:

Biz yurtning ertasi, kelajakmiz,
Ko'p o'qib, bilimdon bo'lajakmiz.
O'rganib vazifa, burchimizni,
Oshirib boramiz kuchimizni.



Bobomizga rahmat deymiz,
O'gitlarin unutmaymiz.
Bugun sizni qutlagaymiz,
Bayramlar bilan.

Naqarot: {2x}

Biz yurtning ertasi, kelajakmiz,
Ko'p o'qib, bilimdon bo'lajakmiz.
O'rganib vazifa, burchimizni,
Oshirib boramiz kuchimizni.



Alla qo'shig'i

Alla – bolani uxlatish uchun aytiladigan qo'shiq. Barcha xalqlarning o'z allalari bor. Ular avloddan avlodga o'tib, xalq tili va ohanglariga moslashgan. Alla muloyim va mayin ovozda ohista kuylanadi.



Alla qo'shig'ini tinglang.



33



1. Odatda, alla qo'shiqlarini kimlar kuylaydi?
2. Alla qachon va nima uchun kuylanadi?
3. Onangiz aytgan allani eslaysizmi?



Topishmoqni toping.

Kech kirdi-yu, kun botdi,
Hamma o'ringa yotdi.
Ko'zimizni yumar u.
Uning nomidir ...

Alla

Do'mboqqinam qo'g'irchoq,
Ko'zlari qora munchoq.
Allalayin tonggacha,
Uxla soat o'ngacha. {2x}

Naqarot: {2x}

Alla jonim, alla-yo,
Uxlab qoldi hamma-yo.

Bir, ikki, uch, yum ko'zing,
Hammadan yaxshi o'zing.
Sochlaringni silayman,
Senga sog'liq tilayman. {2x}

Naqarot: {2x}

Ko'rib yotgin shirin tush,
Do'sting bo'lsin hamma qush.
Tutganingda uchmasin,
Sendek do'stdan kechmasin. {2x}

Naqarot: {2x}

